O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 7 - dekabr 427-11-0-Q/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, jumladan aholida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning biznes tashabbuslarini moliyalashtirish va loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish chora-tadbirlari to‘g‘risda

Viloyat shahar-tumanlarida kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, jumladan aholida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning biznes tashabbuslarini moliyalashtirish va loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-noyabrdagi “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-366 sonli qarori ijrosini samarali tashkil etish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-noyabrdagi “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-366 sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin

2. Aholi va tadbirkorlarga kichik va o‘rta biznes uchun davlat tomonidan yaratilgan moliyaviy imkoniyatlarni tushuntirib borish, aholi va tadbirkorlarni biznes ko‘nikmalarini shakllantirish, hududlarda salohiyatli tadbirkorlarni aniqlab, ularning loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish bo‘yicha hududiy Komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

3. Shahar va tumanlarda aholi va tadbirkorlarga kichik va o‘rta biznes uchun davlat tomonidan yaratilgan moliyaviy imkoniyatlarni tushuntirib borish maqsadida o‘tkaziladigan seminar-treninglar grafigi tasdiqlansin

4."Biznesni rivojlantirish banki" ATB Farg‘ona ailoyati hududiy

boshqarmasi kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun jartilayotgan kredit resurslarini o‘zlashtirish choralarini ko‘rib, viloyat hokimligiga ajratilgan kreditlar bo‘yicha doimiy ma’lumot kiritib borsin.

5. Hududiy komissiya tomonidan 2023-yil 7-dekabrga qadar viloyatning shahar va tumanlar bo‘yicha 2024-yilda aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari taklifini ishlab chiqib, viloyat hokimligiga kiritsin.

6. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Sirojitdinov) aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ruyobga chiqarish va maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish vazifasi ijrosini nazoratga olsin.

7. Kichik va o‘rta tadbirkorlik sub’ektlariga "yagona darcha" tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish uchun "Kichik biznesga ko‘maklashish markazi" MChJlar va "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJning vakillariga belgilangan tartibda Savdo-sanoat palatasining Farg‘ona viloyat hududiy borshqarmasiga joylashtirish va sharoit yaratish bo‘yicha tegishli choralarini ko‘rsin.

8. Qaror ijrosini ta’minlash va ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinovga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 7-dekabrdagi
427-11-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Aholi va tadbirkorlarga kichik va o‘rta biznes uchun davlat tomonidan yaratilgan moliyaviy imkoniyatlarni tushuntirib borish, aholi va tadbirkorlarni biznes ko‘nikmalarini shakllantirish, hududlarda salohiyatli tadbirkorlarni aniqlab, ularning loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish bo‘yicha

Farg‘ona viloyati hududiy komissiyasi tarkibi

№	F.I.Sh.	Boshqarma nomi
1.	A.Akbarjonov	-“O‘zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi raisi ***Hududiy komissiya raisi***
2.	X.Sirojitdinov	-Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari ***Hududiy komissiya raisi o‘rinbosari***
3.	Sh.Do‘saliyev	-Markaziy bank Farg‘ona viloyati bosh boshqarmasi boshlig‘i
4.	M.Mamatxonov	-Farg‘ona viloyati Soliq boshqarmasi boshlig‘i
5.	Z.Ro‘zaliyev	-Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i
6.	A.Abdullayev	-Farg‘ona viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i
7.	Q.Erkaboyev	-“O‘zsanoatqurilishbank” ATB Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i
8.	M.Po‘latov	-Tadbirkorlarnining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil devonining Farg‘ona viloyati bosh inspektori
9.	D.Umarov	-“Kichik biznesga ko‘maklashish markazi” MChJ rahbari
10.	I.Aliyev	-“Mikrokreditbank” Farg‘ona viloyat filiali boshlig‘i
11.	D.Sotvoldiyev	-“Agro bank” Farg‘ona viloyat boshqarmasi boshlig‘i
12.	E.Olimov	-“Xalq banki” Farg‘ona viloyat filiali boshlig‘i
13.	X.Abduraximov	-“Biznesni rivojlantirish banki” Farg‘ona viloyat hududiy boshqarmasi boshqaruvchisi
14.	R.Mirzaxmedov	-“Hunarmand” uyushmasining Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i
15.	B.Abduraxmonov	-O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi Farg‘ona viloyati filiali rahbari
16.	M.Saydullayev	-Viloyat hokimligi kotibyati mudiri, ***Hududiy komissiya kotibi***